

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883992>

BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

Karimova Rayhona

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich ta‘limda va boshlang‘ich sinfi ona tili darslarida sifat so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi haqida.*

***Kalit so‘zlar:** darslik, sifat so‘z turkumi, ta‘lim, savod, belgi bildiruvchi so‘zlar.*

***Аннотация:** В этой статье речь идет о методике преподавания качественной лексики в начальной школе и на уроках родного языка в начальных классах.*

***Ключевые слова:** учебник, прилагательное словосочетание, образование, грамотность, жестовые слова.*

***Annotation:** This article is about the method of teaching quality vocabulary in primary education and in primary-grade mother tongue classes.*

***Key words:** textbook, adjective phrase, education, literacy, sign words.*

Bugungi kunda ta'limga va uning barcha sohalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki ta'lim dunyoni qutqaruvchi eng kuchli quroldir. Buni dunyo pedagoglari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolaning bilim olishida eng muhim davr bu - boshlang'ich ta'limdir. Ayniqsa, bu bilim ularga yoshlik chog'ida berilgan bo'lsa. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning qiziqishini oshirishga katta e'tibor berish kerak.

So'z turkumlari mavzusi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi. Boshlang'ich sinf darsligida ot, sifat, son, fe'l va olmosh so'z turkumlari yengillashtirilgan holatda o'tiladi. Sifat deb: "Narsaning belgisi, xususiyati yoki holatini bildiruvchi so'z turkumi. U qanday?, qanaqa?, qaysi?, so'roqlariga javob beradi".

Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatish tizimi o'quv materialini leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar savod o'rgatish davridan boshlab, to 4 - sinfga qadar belgi bildiruvchi so'zlarning - sifatning leksik va grammatik ma'nolarini boshlang'ich sinf ona tili dasturi hajmida o'rganadilar. Savod o'rgatish davrida belgi bildirgan so'zlarning ma'nolarini o'qituvchining "Olmaning rangi qanday?, Olmaning hajmi qanday?, Olmaning mazasi qanday?" kabi savollar asosida kuzatish orqali amaliy bilib boradilar.

1- va 2- sinfda "Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar" mavzusida o'quvchilar belgi bildirgan so'zlarni ma'nolariga ko'ra guruhlariga ajratishni o'rganadilar. Masalan, narsaning xususiyatini, belgisini, hajmini, rang - tusuni, shakl va ko'rinishini, maza va ta'mini, hidini ajratishni o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatishda yana rangli rasmlardan foydalanish juda katta samara beradi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etib, uning hayot tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi, ularga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

O'quvchilarga bu narsalarni tushuntirish jarayonida ko'p metodlardan foydalanishimiz mumkin. Ulardan misollar qilib ko'rsatishimiz mumkin:

- suhbat metodi
- induksiya
- deduksiya

- analiz metodi
- sintez metodi
- hikoya metodi
- yarim izlanishli muammoli metod

Yana bulardan tashqari dars jarayonida turli xildagi ta'limiy o'yinlardan foydalansak ham bo'ladi. Masalan: **“Sifatlarni top!”** o'yini. Bunda o'quvchilarga ichida sifat so'z turkumi mavjud bo'lgan matn yoki jumlar beriladi. Ular bu matndan sifatlarni ajratib, topib yozishlari kerak bo'ladi. Yana **“Men kimman?”** o'yini. Bunda o'quvchilardan biri biror sifatni o'ylaydi va boshqalarga tavsif berib aytadi. Boshqalar esa bu qaysi sifat ekanini topishlari kerak bo'ladi. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va juda qiziqarli bo'ladi.

Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va juda qiziqarli bo'ladi.

Sifat mavzusi bo'yicha darslikda ham turli xildagi mashqlar beriladi. Ularni bajarish orqali o'quvchilarning fikrlashi va bilimini oshiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afforova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", o'quv qo'llanma.
2. Qosimova K va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent - 2009.
3. M. Hamrayev. "Ona tili", T., 2014.